

## QANDLI DIABED

Sanakulova Muxayyo Zarif qizi

E-mail: [sanakulovamuxayyo@gmail.com](mailto:sanakulovamuxayyo@gmail.com)

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

Tog‘ayeva Nuridida Ortiq qizi

E-mail: [nurdida7569@gmail.com](mailto:nurdida7569@gmail.com)

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

Ergasheva Aziza Boxodir qizi

E-mail: [ergashevaaziza335@gmail.com](mailto:ergashevaaziza335@gmail.com)

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

Ravshanova Kumushbibi Qobil qizi

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

## ANNOTATSIYA

Oshqozon osti bezining langergans orolchasida insulin garmoni ishlab chiqariladi. Insulin qondagi ortiqcha glukozani glikogenga aylantirib jigarda to‘playdi. Qondagi shakar miqdori kamayishiga yordam beradi. Bezning glukogen garmoni glikogenni glukozaga aylantirish bilan qonda shakar moddasi miqdorini oshiradi. Insulin kupayganida hujayralarda glukoza sarfi oshib, glikogen sintezi tezlashadi. Qonda glukoza miqdori kamayib, qon bosimi pasayadi. Insulin yetishmaganda qonda qand miqdori oshib, qandli deabed kasalligi kelib chiqadi.

**Kalit so‘zlar:** Qandli deabed, glukoza , insulin, langergans, oshqozon osti bezi, qon, qand, glukogen, immunitet, glukoza,

## DIABETES

### ABSTRACT

Insulin hormone is produced in the islet of largerhans of the pancreas. Insulin converts excess blood glucose into glycogen and stores it in the liver. Helps lower blood sugar. Diabetes, also known as diabetes mellitus, is a group of metabolic disorders characterized by a higt blood sugar level over a prolonged period of time. Symptoms often include frequent urination, increased thirst and increased appetite.

**Key words:** Diabetes, glucose, insulin, langergans, pancreas, blood, sugar, glucogen, immunity;

Qandli deabed- me'da osti bezi funksiyasining yetishmovchiligi oqibatida uglevod almashinuvining buzulishi. Bu yillab davom etib kasallik to'liq tuzalmaydi. Kasallik yingil, o'rta, og'ir shaklda kechishi mumkin.

Kasallik oshqozon osti bezi hujayralarining insulinni yetarli darajada ishlab chiqarmaganligi oqibatida kelib chiqadi. Kasallik asta- sekin ba'zan bemorga bilinmasdan boshlanadi. Dastlab bemorda holsizlik, kup chanqash, terining qurishi, bemor bir kecha kunduzda 5-8 litrgacha suyuqlik ichadi va kechalari kup siyadi. Ishtaxa kuchayadi lekin kup ovqat yeyishiga qaramay bemor arriqlab ketadi. Bemorda tez charchash, ko'rish sohasida muammolar, bo'g'im sohasida og'riqlar paydo bo'ladi. Qandli deabedi bor bemorlarda immunitet sust bo'ladi, infeksion kasallikkarga moilligi oshadi. Qandli deabedi bor bemorlarimida labarator tekshiruvlarida bir qanchasida o'zgarishlar paydo bo'ladi. Misol uchun: siydikda qand paydo bo'ladi. Sog'lom inson organizmida normada siydikda qand bo'lmaydi. Qonda qand miqdori oshadi. Normada sog'lom organizmi qonida ham qand bo'ladi 3,3 dan 5,5 gacha qonda glukoza miqdori aniqlansa bu normal holat hisoblanadi. Qandli deabedi bor bemorlar doimiy holatda parxezga rioya qilgan holatda yurishlari lozim. Yog'li, xamirli, qovurilgan, sho'r ovqatlarni kamroq iste'mol qilishlari lozim. Qandli deabed kasalligi ikki tipga bo'linadi:

Birinchi tip kasalligi 40 yoshgacha bulgan insonlarda uchraydi.

Ikkinci tip kasalligi 40 yoshdan oshgan bemorlarda uchraydi.

Hozirgi kunda asosan ikkinchi tipga mansub insonlarda kasallik kup uchramoqda. Bunga sabab insonlarda ortiqcha vazn ya'ni semizlik, kam harakatlilik, tez asabiylashish, kup yog'li, sho'r, qovurilgan narsalarni is'temol qilishimizdan kelib chiqmoqda.

Afsuski, ko'p holatlarda birinchi turdag'i diabetni oldini olish mushkul vazifa. Chunki uning asosiy sabablari irsiy omillar va kichik viruslardir. Lekin kasallik hammada ham rivojlanavermaydi. Olimlar ko'krak suti bilan ko'proq oziqlangan bolalarda qandli diabet kamroq uchrashini ta'kidlashadi, ammo bu hali isbotlanmagan.

Ikkinci turdag'i diabetda esa umuman boshqacha holat. Chunki u noto'g'ri ovqatlanish va hayot tarzi natijasida shakllanadi, shuning uchun profilaktik choratadbirlarni qo'llasa bo'ladi, demak:

- Tana vaznnini normallashtirish;
- Qon bosimi va yog'lar almashinuvining nazorat qilish;
- Yengil hazm bo'ladigan ovaqatlar iste'mol qilish;

• Jismoniy faollikka amal qilish va shu bilan birga haddan ziyod zo‘riqishlardan o‘zini tiyish.

Qandli deabetni davolash. Bu juda bahsli masala, bugungi kunda qandli diabetni to‘liq davolash imkoniyatlari faol izlanishlar ostida. Qiyinchiligi shikastlangan organlarni tiklashdadir. Ikkinchi turdagи diabetni butunlay davolashning iloji bor, parhez tutilib, tana vazni me’yorga keltirilsa kasallik butunlay yo‘qolib ketadi.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. “Hamshiralik ishi” T.Yu.Umarova. I.A. Qayumova. M.Q. Ibragimova Toshkent 2003 y
2. “Hamshiralik ishi asoslari” K. O‘. Zokirova. D.O‘. To‘xtamatova. S.A. Mirzaboyeva Toshkent 2010 y
3. “Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish” O‘zbekiston milliy ensklopediyasi Toshkent 2011y.